
Nemis tilinimuammoli o'qish metodi orqali o'rgatish

Nishanova Viloyat Narjigitovna

viloyatnishonova@gmail.com

Tayanch doktorant

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya *Xorijiy tillarni o'qitishda samarali metodlarni tanlash va ularni amaliyotga tatbiq etish o'quv jarayonining sifatini oshirishda muhim omildir. Ayniqsa, muammoli o'qish metodidan foydalanish nemis tilini o'rganuvchi talabalar uchun muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishda samarali vosita bo'la oladi. Mazkur maqolada chet tillarini o'qitish metodikasi, xususan, muammoli o'qish metodining ilmiy-nazariy asoslari, tarixiy shakllanish bosqichlari, dars jarayonidagi qo'llanish mexanizmlari va metodik ahamiyati keng yoritilgan. Shuningdek, bu metod orqali talabalarning nutqiy faolligi, mustaqil fikrlashi va kommunikativ kompetensiyasi qanday shakllanishi amaliy misollar asosida tahlil qilingan. Maqolada interaktiv yondashuvlar, innovatsion usullar va zamonaviy didaktik vositalar bilan muammoli o'qish metodining integratsiyalashuv imkoniyatlari ham ko'rib chiqiladi. Muammoli o'qish metodining ilmiy asoslari, bu metodni tadqiq etgan olimlar, turli davrlarda o'rganilgan fikrlari ham aynan keltirilgan. Tadqiqot natijalari bu metodning xorijiy til o'rgatishdagi samaradorligini tasdiqlaydi va o'qitish jarayonidagi amaliy qo'llanilishi va zamonaviy metodik yondashuvlar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar *Nemis tili, muammoli o'qish, metodika, kommunikativ kompetensiya, til o'rgatish, interaktiv yondashuvlar, didaktik usullar, innovatsion metodlar.*

Обучение немецкому языку методом проблемного чтения

Нишанова Вилоят Наржигитовна

viloyatnishonova@gmail.com

Прикладной докторант

Узбекский государственный университет
мировых языков

Аннотация *Выбор эффективных методов обучения и их применение на практике являются важным фактором повышения качества образовательного процесса при преподавании иностранных языков. Особенно метод проблемного чтения может быть действенным средством в развитии коммуникативных навыков, критического и творческого мышления у студентов, изучающих немецкий язык. В данной статье подробно освещены методика преподавания иностранных языков, в частности, научно-теоретические основы метода проблемного чтения, этапы его исторического становления, механизмы применения на занятиях и методическое значение. Также проанализированы примеры, как данный метод способствует развитию речевой активности, самостоятельного мышления и коммуникативной компетенции студентов. В статье*

рассматриваются возможности интеграции метода проблемного чтения с использованием интерактивных подходов, инновационных методов и современных дидактических средств. Приведены научные основы метода, взгляды учёных, исследовавших его в разные периоды. Результаты исследования подтверждают эффективность этого метода в обучении иностранным языкам, а также анализируется его практическое применение и современные методические подходы в преподавании.

Ключевые слова *Немецкий язык, проблемное чтение, методика, коммуникативная компетенция, обучение языку, интерактивные подходы, дидактические методы, инновационные методы.*

Teaching German through the Problem-Based Reading Method

Nishanova Viloyat Narjigitovna

viloyatnishonova@gmail.com

PhD Researcher

Uzbekistan State University of World Languages

Annotation *Selecting and applying effective teaching methods is a crucial factor in improving the quality of the educational process in foreign language instruction. In particular, the problem-based reading method can serve as an effective tool for developing communication skills, critical thinking, and creativity in students learning the German language. This article provides a comprehensive overview of foreign language teaching methodology, specifically the theoretical foundations of the problem-based reading method, its historical development stages, its classroom application mechanisms, and its methodological significance. The article also analyzes practical examples demonstrating how this method fosters students' speech activity, independent thinking, and communicative competence. Additionally, the integration potential of the problem-based reading method with interactive approaches, innovative techniques, and modern didactic tools is explored. The scientific basis of the method, the scholars who have studied it, and their perspectives over time are also presented. The research findings confirm the effectiveness of this method in foreign language instruction, and its practical implementation and alignment with modern methodological approaches are thoroughly analyzed.*

Keywords *German language, problem-based reading, methodology, communicative competence, language teaching, interactive approaches, didactic methods, innovative techniques.*

Xorijiy tillarni o'rgatish jarayonida talabalarning til kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion metodlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xususan, muammoli o'qish metodi o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoni yechish, izlanish va muloqotga kirishish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu metod ayniqsa nemis tili kabi grammatik jihatdan murakkab tillarni o'rganishda samarali hisoblanadi.

Ko'plab olimlar muammoli o'qishning manbalariga xaqida gapirib, uning rivojlanish bosqichlarini to'liq tahlil qildilar: o'qishni faollashtirish metodi, tadqiqot metodi va muammoli o'qish metodi. Muammoli o'qish tarixiga oid asosiy nazariy tadqiqotlar XX asrning 70-yillarida, ya'ni deyarli 40 yil oldin o'tkazilgan.

Muammoli o'qish tarixida nima yangilik aytish mumkin? M.I.Mahmutov kabi muammo muammosining rivojlanishini yana bir bor tahlil qilishmikin? V.T.Kudryavtsev kabi faollashtirish, tadqiqot metodi va muammoli o'qishining mohiyatini yana bir bor o'rganish qanchalik o'rinlidir? O.Zelts, K. Dunker va boshqa olimlar S.L.Rubinshteyn, P.P.Blonskiy tadqiqotlarini bog'lab, muammoli o'qishning manbalarini psixologiya kontekstida qayta tahlil qilish kerakmi?

Bunday tadqiqot A.M.Matyushkin tomonidan ajoyib o'tqazilgan. "Muammo usulining" "Maxsuldor usul" sifatida an'anaviy usul bilan taqqoslanishini muammo va uning rivojlanish jarayonlari kontekstida ko'rib chiqish kerakmi?

"Nima ko'rishimiz mumkin muammoli o'qish tarixi yoki manbasi obyektini o'rganish vaqtida? Ushbu masalaga yana qaytish zarurmi? Muammo o'qish yo'lidagi yangi tadqiqot bizga qanday foyda keltirishi mumkin? Ushbu yangi shakl va mazmunini ko'rish uchun qanday nuqtai nazardan qarashimiz kerak?

Bunday ko'plab savollar ko'tarilganda, paradoksdan boshlashimiz kerak. Bir tomondan, muammoli o'qish asosida insonlarni ijodiy rivojlantirish mumkin, ikkinchi tomondan, XX asrning oxirida falsafa, psixologiya, pedagogika va metodika, ayniqsa chet tillarini o'qitish metodikasida muammoli o'qish nazariyasi va amaliyotiga bo'lgan qiziqish pasaygan.

Shunday qilib, muammoli o'qishning manbalariga qaytish bizga savol beradi: nima uchun "muammoli" g'oyalari XX asr oxirida rivojlanmagan? Bu nima xaqida? Muammoli o'qish kelajagi xaqida oldindan nimadir ayta olamizmi? Agar ha bo'lsa, unda muammoli o'qish XX asrda nima bo'lib o'tdi va ehtimol XXI asrda nimalar sodir bo'ladi?

Muammo o'qishini o'rganishga bag'ishlangan eng muhim asarlar XX asrning 60-80-yillarida yozilgan. Ushbu asarlarni xronologik tartibda ko'rsatamiz: A.M. Matyushkin "Fikrlash psixologiyasidagi muammolar" (1965) V.Okon "Muammo o'qishining asoslari" (1967,) A.M. Matyushkin "Fikrlash va o'qitishdagi muammoli vaziyatlar" (1972) I.Ya. Lerner "Muammo o'qishi: nazariyaning asosiy masalalari" (1974); T.V. Kudryavtsev "Texnik fikrlash psixologiyasi" (1975) M.I. Mahmutov "Muammo o'qishi: nazariyaning asosiy masalalari" (1975) T.A. Ilyina "Muammo o'qishi - tushuncha va mazmun. Brushlinsky "Fikrlash psixologiyasi va muammo o'qishi" (1983) V.T. Kudryavtsev "Muammo o'qishi: manbalar, mohiyat, istiqbollari", (1991) Har bir muallif "muammoli o'qishining manbalarini" obyektida o'z mavzusini tanlaydi.

Darhaqiqat, asosiy nazariy tadqiqotlar XX asr 70-yillaridan boshlab yozilgan. "E'tiborli jihat shundaki, - deb yozadi V.T. Kudryavtsev, - tadqiqot sohasi bo'yicha asosiy nazariy asarlarning nashri, dastlabki to'plangan tajribani umumlashtirib, mamlakatimizda 70-yillarning birinchi yarmiga to'g'ri keladi.

O'sha yillar davomida muammoli o'qishining ba'zi jihatlari nazariy analizga tortildi; tadqiqotchilarning diqqat-e'tibori uning aniq texnologiyasi va metodologiyasiga qaratildi" (Kudryavtsev, 1991; 4-5) Muammo o'qishi masalalari maktabda turli fanlarni yangi tadqiqotlar uchun yo'naltiruvchi vazifani bajargan, bizning o'qitishda va ayniqsa oliy ta'limda ko'rib chiqiladi. "Buning natijasida, bu albatta, erishilgan narsalarni chuqur nazariy umumlashtirishni talab qiladi va nihoyat, muammoli o'qishni nazariyasini yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqish kerak. Biroq, 80-yillarda muammoli o'qishi sohasida nazariy tadqiqotlar ulushi kamaydi" (Kudryavtsev, 1991; 5)

Kudryavtsevning fikrini davom ettirgan holda, XX asrning 90-yillarida nafaqat nazariy tadqiqotlar deyarli to'xtadi, balki muammoli o'qish amaliyotda qozonilgan pozitsiyalarini yo'qotishga boshladi. Muammo o'qishining rivojlanish potentsiali va uning g'oyalariga nisbatan befarqlik o'rtasidagi nomunosabatlarning borligini ko'rsatib, V.T. Kudryavtsev bilan rozi bo'lmaslik qiyin, u 1991-yilda shunday yozgan: "O'ylaymizki, muammoli o'qishining nazariyasining to'liq va keyingi rivojlanishi nafaqat olimlar ishidir, balki xalq ta'limi sohasidagi amaliyotchilarni ham ushbu hamkorlikka jalb qilishni talab qiladi" (Kudryavtsev, 1991; 5). Hozir, uchinchi ming yillikning boshida, bu fikr juda dolzarbdir.

Xorijiy ilmda muammoli o'qishining rivojlanishi uch bosqichda o'tdi: ta'limni faollashtirish, tadqiqot metodi, muammoli o'qitish.

Faollashtirish metodini ko'rib chiqishdan boshlaymiz. Qadim zamonlardan beri aqliy faoliyatning yaxshi esda qolish uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi tan olingan, chunki bu predmetlar va hodisalar mohiyatini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Muammoli savollarini muhokama jarayonida Suqrot

(Miloddan avvalgi 469-399 yillar) va Pifagor maktabi vakillari, sofistlar qo'llagan.

Yangi tarixda Angliyada ta'limni faollashtirish g'oyalari zamonaviy ingliz empirikizmining asosi bo'lgan Frensis Bekon (1561-1626) nomi bilan bog'liq. Ajoyib chex pedagogi va mutafakkiri Yan Amos Komenskiy (1592-1670) o'rganish jarayoni har biri "aqli ta'lim" ning asosida yotadigan faol jarayon ekanligini hisobga olgan.

Tadqiqot metodining rivojlanishi amerikan pedagogikasida bir necha yo'nalishlarni yaratdi, bu yo'nalishlar muammoli o'quvni rivojlantirish g'oyasini ilgari surdi. Birinchi yo'nalish, 1909 yilda nashr etilgan J. Dewey (1859-1952)ning "Qanday qilib o'ylaymiz" kitobida aks etdi. Ushbu nazariyaga ko'ra, o'ylash - bu muammolarni hal qilish, ingliz tilida "problem solving" deb ataladi. Amerikan pedagogikasida "muammo o'quvi" atamasining sinonimi ham, mos ravishda, "problem solving" hisoblanadi. Ushbu konseptsiyada o'quvchilarning muammolarni hal qilish orqali mustaqil o'qishga bo'lgan roli oshirilmoqda hamda o'qituvchining roli past baholanmoqda. J. Deweyning konseptsiyasida eng qimmatli narsa, reflektiv fikrlashning beshta bosqichini shakllantirishidir. "Shubha" holatidan "aniqlik" holatiga o'tish uchun, shaxsning fikri beshta bosqichdan o'tishi kerak: 1) barcha mumkin bo'lgan qarorlar yoki taxminlar hisobga olinadi; 2) shaxs muammo borligini anglaydi va hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni formulalaydi; 3) taxminlar hipotezalar sifatida foydalaniladi va kuzatishlar hamda faktlarni yig'ish bilan bog'liq; 4) topilgan faktlar tartibga solinishiga va tahlil qilishga olib keladigan argumentatsiya olib boriladi; 5) ilgari surilgan hipotezalarning to'g'riligini amaliy yoki tasavvuriy ravishda tekshirish amalga oshiriladi (Dewey, 1933; 107).

1. Muammoli o'qish metodining nazariy asoslari.

Muammoli o'qish – bu o'quvchilarni muayyan matn asosida muammoni anglash va uni mustaqil hal qilishga yo'naltiruvchi faol o'qish turidir. Bu metod Lev Vygotskiy, J. Dyui, M. A. Danilov kabi pedagoglarning tadqiqotlariga asoslanadi. Ular o'quvchi shaxsini rivojlantirishda muammoning mavjudligi o'quv faoliyatini kuchaytirishini isbotlaganlar. Darhaqiqat, quyida nemis tili darslarida muammoli o'qish metodi orqali tahlil qilingan hikoyani ko'rib chiqamiz.

2. Muammoli o'qish metodining qo'llanilishi nemis tili darslarida quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- Muammoli vaziyatni yaratish: O'quvchilarga tushunarsiz yoki kutilmagan ma'lumotlar bilan to'la matn taqdim etiladi;
- Muammoni anglash: Matndagi muammo aniqlanadi va uni yechish uchun fikr yuritiladi;
- Muammoga yechim topish: talabalar matni tahlil qilib, savollarga javob izlaydi, g'oyalarni ilgari suradi;
- Nutqiy faoliyatga kirishish: olingan yechimlar asosida munozara yoki dialoglar tashkil etiladi.

Misol: Heinrich von Kleistning "Der zerbrochene Krug" hikoyasiga asoslangan darsda asosiy qahramonning xatti-harakati muammoli vaziyat sifatida berilib, talabalar bu harakatni oqlash yoki tanqid qilish orqali og'zaki nutqga kirishadi.

Quyida asarni muammoli o'qish metodi uchun mos jihatlari keltirilgan. "Der zerbrochene Krug" o'z ichiga bir necha muhim konflikt va sirli vaziyatlarni oladi: Krushkani sindirilganiga kim sababchi? Nega sudya Adam bu ishni yashirishga urinmoqda? Xaqiqat qanday aniqlandi? Bu savollar o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadi va ularni matni tahlil qilishga undaydi.

- Muammoli vaziyat va savollar bilan bosqichma-bosqich o'qish

1-bosqich: O'qishdan oldingi muammo

Savol: Krujka sindirilgan. Onasi qizi Evani himoya qilmoqda, lekin sudya bu ishdan o'zini chetga olmoqda. Sizingcha, bu yerda aybdor kim bo'lishi mumkin?

(Maqsad: o'quvchi taxmin qiladi, turli ehtimollarni ilgari suradi)

2-bosqich: Adamning o'zini tutishi (jarohati, chalkash izohlar) sizda qanday Shubha uyg'otmoqda?

(Maqsad: O'quvchi matndan dalillar topadi, xarakterlar harakati asosida fikr yuritadi)

3-bosqich: o'qishdan keyingi muammo

Savol: Sud tizimida adolatni kim tikladi-Eva, Frau Marte yoki Walter?

Nima uchun

(Maqsad: Tanqidiy baho berish, bahsli savollarda fikr bildirish)

4- Metodik foydasi:

O'quvchi matnga shunchaki qarab chiqmaydi, faol fikrlaydi.

Dialoglar orqali muloqotga kirishadi.

Matn asosida xulosa chiqarish, taxminni dalil bilan isbotlash o'rgatiladi.

Dramaturgiya orqali o'quvchida axloqiy mezonlar, adolatga ishonch, va haqiqatni topishga bo'lgan intilish shakllanadi.

Badiiy matnlar odatda murakkab ijtimoiy, axloqiy yoki shaxsiy muammolarni o'z ichiga oladi. Talabalarga shu muammolarni hal qilish uchun savollar berilishi, ularni muhokamaga chorlash-nemis tilida fikr bildirish, savol-javob qilish mulohaza yuritish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Muammoli vaziyat asosida talabalar matnga passiv qarab o'tirmaydi, balki uni tahlil qiladi, asosiy g'oyani anglab, o'z fikrini ifoda etadi. Bu esa ularning til vositalaridan o'rinli va ongli foydalanishiga zamin yaratadi. Matndagi muammo yuzasidan munozara yoki rolli o'yinlar tashkil etilishi talabalarni gapirishga, nemis tilida ravon gapirishga majbur etadi. Bu usullar orqali og'zaki nutq oson va izchil shakllanadi. Badiiy matnlar ko'pincha boshqa xalqlarning turmush tarzi, madaniyati,

qadriyatlarini bilan tushuntiradi. Talabalar bu jarayonlarni tahlil qilish jarayonida o'z dunyoqarashlarini kengaytiradilar va o'z fikrlarini ifodalashga intiladilar.

Muammo yechimini izlashda xar bir talaba o'ziga xos yondashuvlarni taklif qilishi mumkin. Bu esa ijodkorlikni, erkin fikr bildirish malakasini, shuningdek, nemis tilida o'z fikrini aniq ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi.

5. Integratsiya imkoniyati:

Bu metod orqali nemis tili darslari faqat lug'at va grammatika emas, balki fikrlash, tanqidiy tahlil, ijtimoiy mavzular muhokamasiga ham boyitiladi.

3. Muammoli o'qish orqali gapirish ko'nikmasini rivojlantirish

Ushbu metod yordamida talabalar o'z fikrini mustaqil ifoda qilishga, matndan tashqari manbalarni tahlil qilishga va og'zaki nutqda erkin ishtirok etishga o'rganadilar. Shu tariqa kommunikativ kompetensiya shakllanadi.

Kommunikativ kompetensiyaning mazmuni:

Kommunikativ kompetensiya – bu tilni turli kommunikativ vaziyatlarda to'g'ri va samarali ishlata olish qobiliyati bo'lib, u quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Lingvistik kompetensiya – grammatik, leksik bilimlar

Sotsiokultural kompetensiya – madaniy muhitga mos muloqot qila olish

Pragmatik kompetensiya – til vositalaridan vaziyatga mos foydalanish

Strategik kompetensiya – muloqotdagi to'siqlarni bartaraf etish ko'nikmasi.

Bu kompetensiyalarni uyg'un rivojlantirish uchun interaktiv va tanqidiy fikrlashga asoslangan metodlar zarur.

1. Muammoli o'qish metodining mohiyati

Muammoli o'qish metodi — bu o'rganilayotgan matn asosida o'quvchilarda muayyan savollar, fikrlashga undovchi topshiriqlar, taxminlar va tahlil asosida muloqotni shakllantiradigan metoddir. Unda quyidagilar muhim o'rin tutadi:

Matnga asoslangan savollarni tahlil qilish

Muammo yuzasidan fikr yuritish

Alternativ yechimlar haqida bahs yuritish

Fikr almashish orqali og'zaki nutqni rivojlantirish

Bu metod orqali talabalar tilni faqat passiv tarzda emas, balki faol muhokama jarayonida o'zlashtiradilar.

2. Darsda muammoli o'qish asosida qo'llaniladigan topshiriqlar

Nemis tili darslarida quyidagi turdagi topshiriqlar kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi (Table 1):

Topshiriq turi	Tavsifi
“Was würdest du tun, wenn...?” (Agar sen bo'lsang, nima qilarding?)	Talabalarga muammoli vaziyat beriladi, ular o'z pozitsiyasini og'zaki ifodalaydi.
Diskussiya asosida o'qish	Matn asosida ikki qarama-qarshi fikr beriladi, talabalar o'z pozitsiyasini himoya qiladi.
Ich stimme zu / nicht zu, weil...	Matn fikriga rozilik yoki norozilik bildiruvchi mulohazalar orqali muloqot olib boriladi.
Rolli o'yin	Muammoli vaziyatni talabalarning rollarda ijro etishi orqali fikr bildirish malakasi rivojlanadi.

Table 1

4. Metodning samaradorligi

Mustaqil va reflektiv yondashuvni shakllantiradi.

Muammo yechimining bir nechta variantda bo'lishi talabalarni izlanishga, alternativ fikrlar ilgari surishga undaydi. Bu yondashuv mustaqil fikrlashni va shaxsiy nuqtai nazarni ifoda etish malakasini rivojlantiradi.

Muammoli o'qish metodi orqali:

- Talabalarda **mustaqil fikrlash, savol berish** va **muloqotda ishtirok etish** ko'nikmalari shakllanadi;
- Nutq faolligi oshadi;
- Til o'rganish motivatsiyasi kuchayadi;
- Akademik hamda real hayotiy muloqot uchun tayyorgarlik kuchayadi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, muammoli o'qish asosida tashkil etilgan darslarda talabalar 40–50% ko'proq muloqotda qatnashadi va fikr ifodasi ancha aniq va ravon bo'ladi.

Xulosa

Shunday qilib, muammoli o'qish metodi badiiy matn bilan ishlash jarayonida nafaqat til o'rganishni faol, samarali va interaktiv holga

keltiradi, balki talabalar nutqining mantiqiyligi, aniqligi va ravonligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu metodning kommunikativ yondashuv bilan uyg'unlashuvi talabalarning nutqiy kompetensiyasini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, muammoli o'qish metodi chet tilini o'qitishda faqatgina o'qish ko'nikmasini emas, balki keng ko'lamli **kommunikativ kompetensiyani** shakllantirishga xizmat qiladi. Bu metod talabalarni passiv tinglovchidan faol suhbatdoshga aylantiradi. Shuning uchun ham ushbu metod nemis tili darslarida keng qo'llanishi zarur. Nemis tilini muammoli o'qish metodi asosida o'rgatish talabalarning faolligini oshiradi, ularni tanqidiy fikrlashga undaydi, tilni egallashda chuqur tahlil va muloqotga asoslangan yondashuvni shakllantiradi. Mazkur metodni ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish xorijiy til o'rgatish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Bayramova, Z. X. (2019). *Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi*. Toshkent: O'zMU.
2. Danilov, M. A. (1963). *Didaktika sovremennoy shkoly*. Moskva: Prosvetshenie.
3. Dewey, J. (1933). *Experience and education* (p. 107).
4. Götz, H. (2010). *Deutsch als Fremdsprache lehren lernen*. München: Hueber.
5. Harmer, J. (2007). *The practice of English language teaching* (4th ed.). Pearson Longman.
6. Internet manbalari. (n.d.). Olingan sana: [foydalangan sana], www.google.uz, www.wikipedia.org
7. Kudryavtsev, T. V. (1975). *Texnik fikrlash psixologiyasi*.
8. Kudryavtsev, V. T. (1991). *Muammo o'qishi: manbalar, mohiyat, istiqbollar*.
9. Lerner, I. Ya. (1974). *Muammo o'qishi: nazariyaning asosiy masalalari*.
10. Matyushkin, A. M. (1967). *Fikrlash va o'qitishdagi muammoli vaziyatlar*.
11. Okon, V. (1967). *Muammo o'qishining asoslari*.
12. Savin, N. V. (2005). *Pedagogika*. Moskva: Prosvetshenie.
13. Vigotskiy, L. S. (1982). *Myshlenie i rech'*. Moskva: Pedagogika.